International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

Aziz Mardanov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TO‘QIMACHILIK SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BORASIDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish masalalari hamda ushbu yo‘nalishda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Jahon amaliyotida to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulot eksportini diversifikatsiya qilish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish asosiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi asosida ularning innovatsion yondashuvlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, ta’lim va ilmiy hamkorlik dasturlari, shuningdek, korxonalarda boshqaruvni modernizatsiya qilish usullari chuqur o‘rganilgan. Maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *to‘qimachilik sanoati, barqaror rivojlanish, xorijiy tajriba, innovatsion yondashuvlar, klaster tizimi, raqamlashtirish, ekologik toza texnologiyalar, energiya tejamkorlik, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymat,*

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TEXTILE INDUSTRY

Abstract. This article analyzes the issues of sustainable development of the textile industry and the experience of advanced foreign countries in this area. In world practice, the formation of textile clusters, digitalization of production processes, introduction of environmentally friendly and energy-saving technologies, diversification of product exports, and expansion of production of finished products with high added value are recognized as the main directions. In particular, based on the experience of the European Union countries, Turkey, China, and South Korea, their innovative approaches, state support mechanisms, educational and scientific cooperation programs, as well as methods of modernization of management at enterprises are studied in depth. The article highlights the priority areas and practical significance of introducing foreign advanced experiences in the process of modernization and sustainable development of the textile industry of Uzbekistan.

Keywords: *textile industry, sustainable development, foreign experience, innovative approaches, cluster system, digitalization, environmentally friendly technologies, energy efficiency, export diversification, high added value.*

Kirish

To‘qimachilik sanoati jahon iqtisodiyotining eng yirik va qadimiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda global ishlab chiqarish va savdo hajmida muhim o‘rin tutadi. Bu soha nafaqat aholining kiyim-kechak va turmush uchun zarur tovarlarga bo‘lgan

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

ehtiyojini qondiradi, balki millionlab ish o‘rinlari yaratadi, eksport salohiyatini oshiradi va davlatlar iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoatida 75 milliondan ortiq odam mehnat qiladi [1]. Xalqaro savdo markazi hisobotlariga ko‘ra, 2023 yilda jahon to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 850 milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, unda Xitoy, Hindiston, Bangladesh va Turkiya yetakchi o‘rinlarni egallaydi [2]. Bu mamlakatlar, asosan, texnologik innovatsiyalardan foydalanish, arzon ishchi kuchi imkoniyatlari, davlat qo‘llab-quvvatlovi va samarali eksport siyosatlari tufayli to‘qimachilikda katta natijalarga erishgan [3].

Shu bilan birga, global to‘qimachilik sanoati “barqaror rivojlanish” muammosi bilan to‘qnash kelmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) resurslarni tejash, toza ishlab chiqarish, gender tengligi va iqtisodiy o‘sish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [4]. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi sanoat chiqindilarining 20 foizidan ortig‘i to‘qimachilik tarmog‘iga to‘g‘ri keladi, shuning uchun “yashil iqtisodiyot” tamoyillari va ekologik standartlarni joriy qilish dolzarb hisoblanadi [5].

O‘zbekiston uchun to‘qimachilik sohasi strategik ahamiyatga ega. Mamlakatda har yili 3 million tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtiriladi va uni qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Keyingi yillarda “paxta-to‘qimachilik klasterlari” tizimi joriy qilinib, eksport hajmi sezilarli oshdi. Masalan, 2023 yilda O‘zbekiston tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 3,1 milliard AQSh dollariga yetdi [6].

Biroq, sohada hamon qator muammolar mavjud: texnologik jihozlarning eskiligi, xalqaro brendlarda ishtirok darajasining pastligi, ekologik standartlarga to‘liq mos kelmaslik va kadrlar salohiyatining cheklanganligi. Shu sababli, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish har bir davlatda turlicha yondashuvlarni talab qiladi. Jahonning yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlari – Xitoy, Turkiya, Hindiston, Bangladesh va Yevropa Ittifoqi davlatlari bu borada o‘ziga xos strategiyalarni shakllantirgan.

Xitoy dunyo to‘qimachilik sanoatining eng yirik ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi hisoblanadi. Mamlakat jahon bozoridagi to‘qimachilik mahsulotlari eksportining qariyb 40 foizini ta’minlamoqda [7]. Xitoyning muvaffaqiyatining asosiy

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

omillari – ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi texnologiyalarni keng joriy etishdir. Xitoy hukumati “Made in China 2025” dasturi doirasida sanoatning barcha tarmoqlarida, jumladan to‘qimachilikda ham avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni jadallashtirmoqda [11].

Turkiya to‘qimachilik sanoatida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga katta e’tibor qaratadi. Bu davlat Yevropa Ittifoqi bozoriga yaqinligi va xalqaro savdo integratsiyasi tufayli o‘z mahsulotlarini tezkor yetkazib berish imkoniyatiga ega. Turkiya to‘qimachilik sanoatining asosiy yutuqlaridan biri – xalqaro brendlarni shakllantirish va sifat standartlariga qat’iy amal qilishdir. Masalan, LC Waikiki va Koton singari brendlar xalqaro miqyosda tanilgan. Turkiya hukumati eksportni rag‘batlantirish uchun maxsus dasturlar va subsidiyalarni joriy etgan.

Hindiston to‘qimachilik sanoati jahon bozorida arzon ishchi kuchi va paxta xomashyosiga boyligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda 45 milliondan ortiq kishi to‘qimachilik va tikuvchilik sohasida mehnat qilmoqda (Government of India, Ministry of Textiles, 2022). So‘nggi yillarda Hindiston hukumati “Textile Policy 2020–2025” dasturi orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, raqamli ishlab chiqarish tizimlarini kengaytirish va eksport geografiyasini kengaytirishni maqsad qilgan.

Bangladesh esa jahonning eng yirik tikuvchilik markazlaridan biriga aylangan. Mamlakatning umumiy eksportida to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlarining ulushi 80 foizdan ortiqni tashkil etadi [5]. Bangladeshning asosiy afzalligi – arzon ishchi kuchi va ishlab chiqarish hajmining yuqoriligi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarning bosimi ostida mamlakat oxirgi yillarda mehnat standartlarini yaxshilash, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishga ham e’tibor qaratmoqda [1].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari “yashil to‘qimachilik” konsepsiyasini rivojlantirishda yetakchi hisoblanadi. YEI davlatlarida ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza bo‘yoqlar va materiallardan foydalanishga katta urg‘u beriladi. Masalan, “EU Circular Economy Action Plan” doirasida to‘qimachilik sanoatini qayta tiklanadigan resurslar asosida rivojlantirish maqsad qilingan [9]. Bundan tashqari, YEI mamlakatlari iste’molchilarni ham “barqaror moda” mahsulotlarini xarid qilishga rag‘batlantiruvchi siyosat yuritmoqda.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- ishlab chiqarishda raqamlashtirish va innovatsiyalarni keng joriy etish;
- energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish;

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

- xalqaro mehnat va ekologik standartlarga moslashish;
- eksport geografiyasini kengaytirish va xalqaro brendlarni yaratish;
- davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Shunday qilib, ilg‘or xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish mamlakat to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishida to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Shu sababli metodologik yondashuv sifatida taqqoslama tahlil, kontent-tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

To‘qimachilik sanoatida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish natijasida ishlab chiqarish, eksport, ishchi kuchi bandligi, raqamlashtirish darajasi va ekologik barqarorlik bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlar aniqlangan. Quyidagi jadval va diagrammalar asosida yetakchi davlatlarning tajribasi taqqoslanadi.

Jahon to‘qimachilik sanoatida yirik davlatlarning asosiy ko‘rsatkichlari [1,5,7]

Davlat	Ishlab chiqarish (mlrd $)	Eksport (mlrd $)	Ishchi kuchi (mln kishi)	Raqamlashtirish darajasi	Ekologik siyosat
Xitoy	850	291	7.5	Yuqori	Kuchli
Hindiston	210	40	4.5	O‘rta	O‘rta
Bangladesh	115	45	4.0	Past	Zaif
Turkiya	70	25	1.0	Yuqori	Yuqori
Yevropa Ittifoqi	150	60	1.8	Juda yuqori	Kuchli

Ishlab chiqarish hajmi tahlili. Xitoy to‘qimachilik sanoati hajmi bilan jahon bozorida yetakchi hisoblanadi. 850 mlrd dollarlik mahsulot ishlab chiqarishi, bu mamlakatning ulkan quvvatga va jahon talabiga xizmat qilish salohiyatiga egaligini anglatadi. Hindiston esa ikkinchi o‘rinda, lekin uning ishlab chiqarishi Xitoynikidan to‘rt barobar kam. Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, Hindiston ishchi kuchi katta

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

bo‘lsa-da, texnologiya va samaradorlik jihatidan ortda qolmoqda. Bangladesh va Turkiya kabi mamlakatlarda ishlab chiqarish nisbatan kichik, ammo ular mintaqaviy va yirik bozorlarga yo‘naltirilganligi bois muhim rol o‘ynaydi. Yevropa Ittifoqi 150 mlrd dollarlik ishlab chiqarish ko‘rsatkichi bilan hajm jihatdan orqada bo‘lsa-da, ishlab chiqarish sifati va innovatsiyada ustun.

E**ksport hajmi tahlili.** Xitoy eksport ko‘rsatkichlarida ham mutlaq yetakchi. Uning ishlab chiqargan mahsulotining katta qismi xorijiy bozorlarga yo‘naltirilgan va 291 mlrd dollarlik eksport hajmi bilan jahonning asosiy yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Bangladesh nisbatan kichik ishlab chiqarish hajmiga qaramay, eksport ulushi katta ekani bilan ajralib turadi. Bu mamlakat iqtisodiyoti deyarli to‘liq to‘qimachilik sanoatiga bog‘liq. Hindistonda eksport nisbatan past — 40 mlrd dollar, bu mamlakat ichki bozorning kattaligi va ichki talabning yuqoriligidan dalolat beradi. Yevropa Ittifoqi 60 mlrd dollarlik eksport bilan jahon sifat standartlariga javob beruvchi mahsulot yetkazib beruvchi sifatida taniladi. Turkiya ham 25 mlrd dollarlik eksport bilan YeI bozorlarida muhim o‘ringa ega.

Ishchi kuchidan foydalanish tahlili. Xitoy, Hindiston va Bangladesh kabi mamlakatlarda to‘qimachilik sanoatida band ishchi kuchi juda ko‘p (millionlab odamlar). Bu holat arzon ishchi kuchidan keng foydalanish va mehnat talabchan ish jarayonlariga tayangan modelni namoyon etadi. Ammo bu model raqobatbardoshlikning uzoq muddatli kafolati bo‘la olmaydi, chunki avtomatlashtirish va raqamlashtirish sur’atlari tez o‘smoqda. Turkiya va Yevropa Ittifoqi esa nisbatan oz sonli ishchi kuchidan foydalanib, ularning mehnat unumdorligi va texnologiya bilan ta’minlanganligi hisobiga yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaradi.

Raqamlashtirish darajasi tahlili. Raqamlashtirish — zamonaviy sanoat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri. Yevropa Ittifoqi bu yo‘nalishda yetakchi, ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan va intellektual texnologiyalarga asoslangan. Xitoy va Turkiya ham raqamlashtirishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu ularga tezkor ishlab chiqarish va eksportda raqobat ustunligini ta’minlaydi. Hindistonda raqamlashtirish darajasi o‘rtacha, bu esa katta mehnat resurslariga tayangan holatni ko‘rsatadi. Bangladeshda raqamlashtirish past, buning asosiy sababi — investitsiya va innovatsiyalarga kam sarmoya kiritilishi.

Ekologik siyosat tahlili. Yevropa Ittifoqi va Xitoy to‘qimachilik sanoatida ekologik barqarorlikka jiddiy e’tibor qaratadi. Yevropa mamlakatlari “yashil iqtisod” konsepsiyasi asosida ishlab chiqarishni tashkil etadi, bu esa mahsulotlarini xalqaro bozorda yanada raqobatbardosh qiladi. Xitoy ham so‘nggi yillarda atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Turkiya YeI bilan


International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

hamkorlikda yuqori ekologik standartlarni qo‘llaydi. Hindiston va Bangladeshda esa ekologik siyosat yetarlicha kuchli emas. Bu mamlakatlarda asosiy e’tibor arzon ishlab chiqarish va eksportga qaratiladi, bu esa uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay olmaydi.

Jadval tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, har bir davlatning to‘qimachilik sanoatida o‘z modeli mavjud:

- Xitoy — ishlab chiqarish va eksport hajmi bo‘yicha mutlaq yetakchi.
- Hindiston — katta ishchi kuchi va ichki bozorga asoslangan sanoat modeli.
- Bangladesh — arzon ishchi kuchi va eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy struktura.
- Turkiya — geografik joylashuv va YeI standartlariga mos mahsulotlar bilan ustun.
- Yevropa Ittifoqi — yuqori texnologiya, raqamlashtirish va ekologik barqarorlikka asoslangan ilg‘or model.

O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l — Turkiya va Yevropa Ittifoqi tajribasini sifat, texnologiya va ekologik barqarorlik yo‘nalishlarida qo‘llash, shu bilan birga Xitoy tajribasidan samaradorlik va texnologiya transferida foydalanish hisoblanadi.



1-rasm. Davlatlar bo‘yicha to‘qimachilik sanoatida bandlik

Muallif ishlanmasi.

Diagrammada ko‘rinib turganidek, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish va eksport hajmi bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasida katta tafovut mavjud. Xitoy jahonda mutlaq yetakchi hisoblanadi: uning ishlab chiqarishi va eksporti boshqa davlatlarning

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025


ko‘rsatkichlaridan bir necha barobar yuqori. Bu mamlakat to‘qimachilik tarmog‘ida global yetakchi sifatida shakllanganini anglatadi.

Hindistonda ishlab chiqarish hajmi katta bo‘lsa-da, eksport ko‘rsatkichi nisbatan past. Bu esa asosiy e’tibor ichki bozorni ta’minlashga qaratilganini ko‘rsatadi.

Bangladesh eksportga yo‘naltirilgan mamlakat sifatida ko‘zga tashlanadi: ishlab chiqarish hajmi katta emas, ammo eksport ko‘rsatkichi yuqori darajada. Buning sababi arzon ishchi kuchi va mamlakat iqtisodiyotining to‘liq to‘qimachilik sohasiga bog‘liqligida.

Turkiya o‘rta darajadagi ko‘rsatkichlarga ega. Uning asosiy ustunligi Yevropa bozoriga yaqinligi va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga asoslanganligi bilan bog‘liq.

Yevropa Ittifoqi esa ishlab chiqarishda katta ulushga ega bo‘lmasa-da, eksport hajmi yuqori. Bu yerda asosiy omil – yuqori texnologiya, innovatsiya va sifat standartlariga mos ishlab chiqarish hisoblanadi.



2-rasm. Davlatlar bo‘yicha raqamlashtirish va ekologik barqarorlik
Muallif ishlanmasi

Diagramma ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, davlatlar o‘rtasida raqamlashtirish va ekologik barqarorlik darajalarida jiddiy tafovutlar mavjud. Xitoy yuqori raqamlashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lib, ekologik siyosat sohasida ham kuchli natijalarni namoyon etmoqda. Hindistonda raqamlashtirish o‘rta darajada bo‘lib,

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

ekologik siyosatda yetarli darajada muvaffaqiyatga erishilmagani ko‘zga tashlanadi. Bangladeshda esa raqamlashtirish past, ekologik siyosat esa zaif hisoblanadi, bu esa iqtisodiy o‘sish bilan birga barqarorlik masalalariga ham jiddiy e’tibor talab etilishini anglatadi. Turkiyada raqamlashtirish darajasi yuqori, ekologik siyosat esa barqaror va samarali yo‘lga qo‘yilgan. Yevropa Ittifoqi esa raqamlashtirishda juda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ekologik siyosatda ham kuchli pozitsiyani namoyon etadi.

Umumiy qilib aytganda, raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda ekologik siyosatning ham kuchli yo‘lga qo‘yilgani kuzatilmoqda, bu esa raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ekologik barqarorlikka xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish va eksport hajmlarining notekis taqsimlanishi bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xitoyning yuqori ishlab chiqarish salohiyati va eksport imkoniyatlari boshqa davlatlarga kuchli raqobat bosimini yaratmoqda. Shu bilan birga, Hindiston va Bangladesh kabi mamlakatlarda mehnat resurslari yetarli bo‘lsa-da, ularning raqamlashtirish darajasi va ekologik barqarorlik siyosati sustligi iqtisodiy samaradorlikni cheklab qo‘ymoqda. Bu esa ishlab chiqarish hajmining yuqorilashiga to‘sqinlik qiladigan omillardan biridir.

Yevropa Ittifoqida esa ishlab chiqarish hajmi nisbatan past bo‘lsa ham, eksport salohiyatining yuqoriligi, raqamlashtirish va ekologik siyosatning kuchli darajada rivojlanganligi katta afzallik hisoblanadi. Turkiya ham yuqori texnologiyalarni joriy qilish va eksport salohiyatini oshirish borasida qadamlar qo‘yayotgan bo‘lsa-da, mehnat resurslarining cheklanganligi ularning imkoniyatlarini chegaralaydi.

Shu o‘rinda asosiy muammo — davlatlar o‘rtasida ishlab chiqarish quvvati va ekologik siyosatdagi tafovutlarning keskinligidir. Raqamlashtirish darajasi past bo‘lgan davlatlar raqobatbardoshlikni yo‘qotishi mumkin. Lekin bu jarayonning ijobiy jihati shundaki, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik siyosatni kuchaytirish va mehnat samaradorligini oshirish orqali ko‘plab imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

Xususan, Hindiston va Bangladeshda mehnat resurslari ko‘pligi, ularni raqamli texnologiyalar va barqaror ishlab chiqarish tizimlari bilan uyg‘unlashtirish orqali eksport hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Turkiya va Yevropa Ittifoqi esa yuqori texnologiyalar va kuchli ekologik siyosat orqali innovatsion ishlab chiqarish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar bozorida o‘z mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Demak, mavjud muammolar bir vaqtning o‘zida yangi imkoniyatlar eshigini ham ochmoqda. Davlatlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamlashtirish

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

darajasini yuksaltirish va ekologik siyosatni kuchaytirish orqali global bozorning yangi talablariga moslashish imkoniyatiga egadirlar.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xitoyning yuqori ishlab chiqarish va eksport salohiyati boshqa davlatlar uchun raqobat muhitini kuchaytirsa, Hindiston va Bangladeshning mehnat resurslari ko‘pligi, ammo raqamlashtirish va ekologik siyosatdagi cheklovlari ularning samaradorligini pasaytirib qo‘ymoqda. Yevropa Ittifoqi va Turkiya esa yuqori texnologiyalarni qo‘llash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga e’tibor qaratish orqali barqaror o‘sishga erishmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston uchun ham mazkur davlatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu nafaqat mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki xalqaro savdoda mahsulotning ekologik mezonlarga mosligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliy jihatdan, to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifadir. Shuningdek, Hindiston va Bangladesh tajribasidan kelib chiqib, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish zarur. Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida esa ekologik siyosatni kuchaytirish va “yashil ishlab chiqarish”ga bosqichma-bosqich o‘tish katta imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, global to‘qimachilik bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamlashtirishni jadallashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash asosiy omil hisoblanadi. Shu yo‘nalishdagi amaliy choralar nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. International Labour Organization. (2023). Employment trends in the textiles, clothing, leather and footwear industries. Geneva: ILO.
2. International Trade Centre. (2024). World trade statistical review 2024. Geneva: ITC.

3. United Nations Industrial Development Organization. (2022). Industrial Development Report 2022: The future of industrialization in a post-pandemic world. Vienna: UNIDO.

4. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations Publishing.

5. World Bank. (2020). Circular economy in the textile sector: Opportunities and challenges. Washington, DC: World Bank Group.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari. Toshkent: Stat.uz.

7. World Trade Organization. World Trade Statistical Review 2023. Geneva: WTO Publications, 2023.

8. International Trade Centre. Textile and Clothing Industry Trends in Global Trade. Geneva: ITC, 2022.

9. European Commission. EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles. Brussels: European Commission Publications, 2021.

10. Ahmed, S., Hasan, R. The Textile and Apparel Industry of Bangladesh in a Changing World Economy. Dhaka: University Press Limited (UPL), 2020.

11. China National Textile and Apparel Council (CNTAC). Annual Report on China’s Textile Industry Development. Beijing: CNTAC, 2022.

12. Kaplinsky, R., Morris, M. Global Value Chains in the Textile and Garment Sector: Drivers and Policy Implications. Journal of Development Studies, Vol. 55, No. 7, 2019, pp. 1245–1261.

13. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent, 2023.

14. Eurostat. European Textile Industry: Production and Export Indicators. Luxembourg: Eurostat Publications, 2022.

15. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Global Value Chains and Development: Textile Industry Insights. New York: United Nations Publications, 2021.